

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Sirdaryo viloyati doimiy aholisi soni 2019 yil 1 oktyabr holatiga 841,9 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 12,0 ming kishiga yoki 1,4 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 359,6 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,7 %), qishloq aholisi soni 482,3 ming kishini (57,3 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2019 yil yanvar-iyun

- Aholi soni **12,0 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **15,1 ming nafarni** tashkil etdi.
- **2,8 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **5,2 mingta nikoh** va **0,8 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Sirdaryo viloyati aholisining umumiy o'sishi (2019 yil yanvar-sentyabr oylarida)



Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

(2018-2019 yillar 1 oktyabr holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)

	2018 yil	2019 yil*	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Sirdaryo viloyati	825,9	841,9	101,9
Guliston sh.	88,8	90,1	101,5
Shirin sh.	18,5	18,7	101,1
Yangiyer sh.	42,2	43,1	102,1
tumanlar:			
Oqoltin	50,7	51,7	102,0
Boyovut	126,5	128,9	101,9
Guliston	70,1	71,9	102,6
Sayhunobod	75,6	76,8	101,6
Mirzaobod	70,7	72,7	102,8
Sardoba	64,3	65,5	101,9
Sirdaryo	125,2	127,5	101,8
Xovos	93,2	94,9	101,8


*) dastlabki ma'lumot

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 **oktyabr** holatiga eng ko'p aholi soni Boyovut tumanida 128,9 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 15,3 %ni) va Sirdaryo tumanida 126,8 ming kishini(15,3 %), aksincha eng kam aholi soni Shirin shahrida 18,7 ming kishi (2,2 %) va Yangiyer shahrida 43,1 ming kishini (5,1 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Mirzaobod tumanida 2,8%ni, Guliston tumanida 2,6%ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Sayhunobod tumanida 1,6 % ni va Shirin shahrida 1,1 % ni tashkil etdi.

Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 oktabr holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2019 yil 1 oktyabr holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)




Demografik holat

Jinsi bo`yicha doimiy aholi sonining bo`linishi (2019 yil 1 oktyabr holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)

	erkak	ayol
Sirdaryo viloyati	423,0	418,9
Guliston sh.	45,2	45,0
Shirin sh.	9,2	9,5
Yangiyer sh.	21,6	21,5
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin t.	26,0	25,7
Boyovut t.	65,1	63,8
Guliston t.	35,5	36,4
Sayhunobod t.	38,4	38,4
Mirzaobod t.	37,8	34,9
Sardoba t.	33,3	28,2
Sirdaryo t.	63,5	64,0
Xovos t.	47,4	47,5

Hududlar kesimida aholi zichligi (2019 yil 1 oktyabr holatiga, 1 kv kmga to`gri keladigan aholi)



Demografik holat


Tug'ilish. 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida 15,1 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 24,2 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 2,6 promillega ko'paygan (2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 21,6 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan Guliston shahrida (19,3 promilledan 25,6 promillega), Oqoltin tumanida (22,0 promilledan 25,3 promillega), Boyovut tumanida (22,5 promilledan 24,0 promillega), Mirzaobod tumanida (23,9 promilledan 26,9 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish hududlarda qayd etilmadi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-sentyabr)



Demografik holat

Sirdaryo viloyati bo`yicha tug`ilganlar soni, kishi (yanvar-sentyabr)


	2018 y.	2019 y.	O`shish sur`ati %da
Sirdaryo viloyati	13290	15132	113,9
Guliston sh.	1275	1712	134,3
Shirin sh.	225	266	118,2
Yangiyer sh.	665	761	114,4
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	828	970	117,1
Boyovut	2116	2303	108,8
Guliston	1156	1269	109,8
Sayhunobod	1269	1413	111,3
Mirzaobod	1256	1450	115,4
Sardoba	1068	1202	112,5
Sirdaryo	1884	2127	112,9
Xovos	1548	1659	107,2

Demografik holat

Vafot etganlar. 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida 2,8 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etdi, 2018 yilning mos davriga nisbatan minus -0,1 promillega kamaydi (2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 4,6promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada o'sish Shirin shahrida (3,8 promilledan 5,3 promillega) Sardoba (3,6 promilledan 4,2 promillega), Sirdaryo (4,9 promilledan 5,5 promillega) Oqoltin (3,6 promilledan 4,1 promillega), tumanlarida kuzatilgan bo'lib aksincha Yangiyer shahrida (4,6 promilledan 5,9 promillega) kamayish holati kuzatildi.


Vafot etganlar



Erkaklar:
7,9 ming
kishi

Ayollar:
7,2 ming
kishi

Hududlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-sentyabr)



Demografik holat

Sirdaryo viloyati bo`yicha o`lganlar soni, kishi (yanvar-sentyabr)


	2018 y.	2019 y.	O`shish sur`ati %da
Sirdaryo viloyati	2805	2782	99,2
Guliston sh.	353	355	100,6
Shirin sh.	74	53	71,6
Yangiyer sh.	143	188	131,5
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	156	137	87,8
Boyovut	397	395	99,5
Guliston	255	244	95,7
Sayhunobod	226	242	107,1
Mirzaobod	229	228	99,6
Sardoba	202	174	86,1
Sirdaryo	508	460	90,6
Xovos	262	306	116,8

Demografik holat

2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 62,0 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,5%i o'simtaldan, 7,6 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,7 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 5,7 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, hamda 9,5%i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 162 nafarni tashkil etib, ularning 61,7 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 33,9 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 2,5 %i tug'ma anomaliyalardan, 1,9 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



Nikoh. 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 5,2 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koef-fitsiyenti 8,4 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan Guliston shahrida (237,4%), Yangi- yer shahrida (104,0%), Oqoltin tu- manida (107,3%), ga sezilarli o's- gan bo'lib, aksincha eng yuqori ka- mayish sur'atlari Guliston (73,3 %), Mirzaobod (73,5 %), Boyovut (86,2%) tumanlariga to'g'ri kelmo- qda.

Nikohdan ajralishlar. 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,8 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 1,3 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yangiyer sh (121,7 %), Sayxunobod (123,9 %) va Mirzaobod (146,3 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-sentyabr)

	Nikoh tuzganlar	Nikoh koeffitsienti
Sirdaryo viloyati	5238	8,4
Guliston sh.	1194	17,8
Shirin sh.	68	4,9
Yangiyer sh.	288	9,0
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin t.	324	8,4
Boyovut t.	715	7,5
Guliston t.	359	6,7
Sayxunobod t.	392	6,9
Mirzaobod t.	325	6,0
Sardoba t.	368	7,6
Sirdaryo t.	708	7,5
Xovos t.	497	7,0

Demografik holat

Hududlar kesimida nikoh ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-sentyabr)

	Ajrim	Ajrim koeffitsiyenti
Sirdaryo viloyati	815	1,3
Guliston sh.	149	2,2
Shirin sh.	28	2,0
Yangiyer sh.	73	2,3
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin t.	48	1,3
Boyovut t.	87	0,9
Guliston t.	57	1,1
Sayhunobod t.	57	1,0
Mirzaobod t.	60	1,1
Sardoba t.	50	1,0
Sirdaryo t.	130	1,4
Xovos t.	76	1,1

Sirdaryo viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-sentyabr)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2018 y.	2019 y.	O`shish sur`ati %da	2018 y.	2019 y.	O`shish sur`ati %da
Sirdaryo viloyati	5054	5238	103,6	794	815	102,6
Guliston sh.	503	1194	237,4	161	149	92,5
Shirin sh.	84	68	81,0	13	28	215,4
Yangiyer sh.	277	288	104,0	60	73	121,7
<i>tumanlar:</i>						
Oqoltin	302	324	107,3	39	48	123,1
Boyovut	829	715	86,2	107	87	81,3
Guliston	490	359	73,3	54	57	105,6
Sayhunobod	451	392	86,9	46	57	123,9
Mirzaobod	442	325	73,5	41	60	146,3
Sardoba	406	368	90,6	44	50	113,6
Sirdaryo	745	708	95,0	151	130	86,1
Xovos	525	497	94,7	78	76	97,4

Migratsiya. 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 6,6 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 6,9 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 0,5 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida minus 0,5 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2018 yil yanvar- sentyabr	2019 yil yanvar- sentyabr
Ko'chib kelganlar	6,4	6,6
Ko'chib ketganlar	6,9	6,9
Migratsiya sal- dosi	-0,5	-05

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Sardoba tumanida (minus 0,3ming kishi), Sayxunobod tumanida (minus 0,2 ming kishi) qayd etildi.

